

**MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEKNING "BOLALIK"
QISSASIDAN OLINGAN "BOLANING KO'NGLI PODSHO" HIKOYASINI
INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR**

*Fozilova Sarvinoz Muxtorjon qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi
Gafurova Nozima Ikromovna
Farg'ona davlat iniversiteti,
ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola taniqli o'zbek adibi, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Bolalik" qissasidan olingan "Bolaning ko'ngli poshsho" hikoyasini tarjima qilishda yuzaga keladigon muammolar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarjima, milliy xos so'zlar, tag ma'no, ekvivalentlik, adekvatlik, kolorit, madaniyat

Kirish:

Tarjima tarixiga nazar soladigan bo'lsak, uning ildizlari eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladi. Birinchi bo'lib yozma tarjimani qadimgi Rim shoiri, dramaturgi va tarjimoni Liviy Andronik (280–205) qilgan. U Homerning mashhur «Odisseya» asarini yunon tilidan lotin tiliga o'girgan.

Tarjima nazariyasi haqidagi dastlabki fikrlarni eramizgacha bo'lgan birinchi asrda Tulliy Sitseron(106-43) asarlarida yozib qoldirgan. Uning fikricha, «tarjimada shaklni emas, mazmunni yetkazish kerak. So'zma so'z tarjima tarjimonning ojizligidan darak beradi».

XX asrlarga kelib tarjima nazariyasi fan sifatida to'liq shakllanadi va bir qancha nazariy asarlar yaratiladi. G'.Salomovning «Tarjima nazariyasi asoslari» ilmiy asari o'zbek adabiyotshunosligida tarjima nazariyasiga oid eng yaxshi asarlardan biridir. Ushbu kitobda madaniy ilmiy hamkorlik va tarjima, adabiy aloqa va badiiy tarjima, tarjima tarixi saboqlari, badiiy tarjimada uslub, milliy koloritni ifodalashning mazmun va mundarijasи, milliy moslashtirish prinsiplari (o'zga xalqning ijodiy mahsulini o'z xalqining xarakteriga moslashtirish, masalan, Navoiyning ruscha tarjimadagi she'rlari rus xalqining mulkiga aylanishi) she'riy tarjimada vazn transformatsiyasi kabi masalalar yoritilgan.

Tarjimaning to'rtta lingvistik jihat mavjud:

1. Leksik-semantik.
2. Frazeologik.
3. Grammatik.
4. Stilistik.

Leksik-semantik jihat – tarjimada mumkin qadar originalning ma'noviy mazmunini, lingvistik strukturasini saqlab qolinishidir.

Frazeologik jihat – tarjimada frazeologizmlarning ekvivalentini topish masalasi. Ushbu yo'naliishdagi muhim muammo madaniy-milliy koloritni tarjimada bera olish malakasi bilan bog'liq.

Grammatik jihat originalning va tarjimaning grammatik qonuniyatlarini, gap qurilishiga mos kelish va kelmasligi bilan bog'liq.

Tarjimada stilistik jihat emotsiyonal bo'yodkorlikni, yozuvchi uslubining qay darajada saqlanishi va berilishi bilan bog'liq. Masalan, Umar Hayyom ruboiylari tarjimasida Shoislom Shomuhamedov stilistik jihatni maksimal darajada saqlagan.

Ko'pgina madaniy odatlar oddiy tilda tasvirlanadi. Edvard Sepir tilni ijtimoiy haqiqatgayo'lboshlovchi deb ataydi. Insonlaming tajribasi jamiyatning til odimlari bilan keng miqyosda belgilangan va har bir tizim alohida haqiqatni tasvirlaydi. Aynan bir jamiyat haqiqatlarini aks ettiruvchi ikki til bir-biriga o'xshamaydi. Turli jamiyatlardagi foydalilaniladigan so'zlar ham turlichadir. Shu sababdan, til madaniyat yuragidir. Madaniyat tilda o'z aksini topadi.

Milliy odatlar narsa - hodisalar faqat o'ziga xos bo'lsa, ular tarjima qilinmaydi, masalan, sari, kimono, mahsi, kavish kabilari. Bular xuddi madaniy terminlardek o'quvchilar uchun tushuntirib beriladi. Agar maxsus so'z ahamiyatga arzimaydigan bo'lsa, u oddiygina boshqa so'z bilan almashtiriladi.

Metodologiya:

"Bolaning ko'ngli poshsho" hikoyasida keltirilgan "...Ko'cha bugun jonlangan. Bo'zchilar tanda yoyib, ipni ko'k bo'yoqqa bo'yaydilar, bir tomoni dag'al, qilli, g'o'laday og'ir asbobni tanda ustidan yuritib, ipni silliqlaydilar. Bo'zchilaming ko'pi qari-qartang odamlar. Sal sho'xlik qilsang: «G'ivillama oyoq ostida!» deb jerkishadi ular." parchasidagi "Ko'cha bugun jonlangan." jumlasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uni ingliz tiliga shundayligicha so'zma-so'z tarjima qilish ko'zlangan natijani bermaydi chunki bu gapda muallif "Bugun ko'cha odamlar bilan gavjum" degan ma'noni ilgari surmoqda. Ushbu parchada "tanda" so'zi ham ishtirok etgan bo'lib, bu so'z "mato to'qish uchun uzunasiga tortilgan ip, o'rish" ma'nolarini anglatadi va ingliz tilida bu so'zni tarjima qilish uchun unga mo's adekvat ham ekvivalent ham mavjud emas. Shuning uchun tarjima qilish jarayonida "tanda" so'zini shundayligicha qoldirib, o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun definition ya'ni izoh berib ketish kifoya. Parchadagi "G'ivillama oyoq ostida" jumlasini so'zma-so'z emas balki ma'no jihatdan "Do not interrupt to walk from side to side" shaklida tarjima qilish to'g'ri bo'ladi. "qari-qartang odamlar" birikmasini esa ekvivalentini topish orqali ya'ni "old people" shaklida tarjima qilish yetarli bo'ladi. Yana bir " - Bilaman, bilaman, Musulmonqulning odami edi u, shaytonga dars berardi..." parchasidagi "Musulmonqul" nomini shunday berib ketish o'zbek tarixidan bexabar bo'lgan boshqa millat vakili uchun tushunmovchilikka sabab bo'lishi turgan gap, shuning uchun bu shaxs nega tilga olinyapti, o'zi u kim degan savollarga javob bo'lishi uchun u haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish o'quvchida tushuncha paydo qiladi va asarni tushunishini osonlashtiradi. Aynan shu parchadagi "shaytonga dars berardi" jumlasida tag ma'no yashiringan bo'lib, bunda "har qanday qabih va yomon ishlarni qilishga qodir" degan ma'no mujassam. Hikoyadagi "...Omon bo'lsin, orqamda qolsin." parchasidagi "orqamda qolsin" iborasi "menden ko'p yashasin, uzoq umr ko'rsin" degan ma'noda kelyapti shu sababli uni "I wish he stayed my back" shaklida tarjima qilish ma'no jihatdan buzilishlarga, asl ma'nosini yo'qotishga olib keladi. Asardagi "shashpar" so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, bu milliy xos so'zga ingliz tilidagi "mace" adekvatini olamiz. Chunki bu so'zlar har ikkala tilda ham ma'no ham vazifa jihatdan o'zaro mos keladi.

Xulosa:

Tarjima - murakkab jarayondir. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, tarjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog‘liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisa hisoblanadi. Sepir yoki Uorf aytganidek, til madaniyatsiz bo‘lishi mumkin emas. Til yurak bo‘lsa, madaniyat tana va ularning o‘zaro faoliyati hayot energiyasining davomiyligini vujudga keltiradi. Ya’ni yurakni operatsiya qilayotgan jarroh, uni o‘rab turgan tanani nazarga olmay iloji yo‘q. Oybekning "Bolaning ko‘ngli poshsho" hikoyasidagi bir nechta so‘z va iboralarning tarjima jarayonidagi tahlilini ko‘rib chiqdik. Tarjima davomida tildan tashqari jihatlarni yaxshi bilmaslik ya’ni o‘zga xalq madaniyatini yaxshi anglamaslik tarjimaga putur yetkazishini angladik. Shunday qilib, tarjima yuzlashadigan eng qiyin muammolardan biri buyumlar yoki voqeа - hodisalaming leksik ekvivalentini topishdir. Tarjimon faqatgina ikki tilni emas, balki ikki madaniyatni taqqoslaydi. Madaniyatlamning farqi tufayli tarjima qilinadigan tildagi tushunchalarda tarjima qilinayotgan tilda leksik ekvivalent bo‘lmasligi mumkin. Bu geografiya, urf-odatlar, e’tiqodlar, dunyoqarashlar va boshqalaming turlichaligi tufayli bo‘lishi mumkin. Tarjimon tushunchalarni ifodalash uchun tarjima tilida yangi yo‘l va usullarni topishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. 5-sinf "Sharq" nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bo'sh tahririysi, Toshkent-2015
2. Gafurova, N. (2020). Хозирги замон тилшунослигига “Термин” ва унга турлича ёндашувлар. Журнал иностранных языков и лингвистики, 1(1), 58-62.
3. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 571-575.
4. Gulnoz Xalliyeva "Qiyosiy adabiyotshunoslik" Toshkent -2020
5. Pakirdanova, S. (2023). ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA REKLAMA MATNI VA UNING O’ZIGA XOS XUSUSISYATLARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(19).
6. Kosimova, M. U. (2021). Different classification of functional styles. Ученый XX века. 4 (85).7-8.
7. Kosimova,M.U. (2022) The characteristics of scientific style. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. 12(05). 931-933